

**HOFIZ XORAZMIYNING MA'NODOSH SO'ZLARNI DIALEKTIZMLAR  
BILAN BOYITISH MAHORATI**

**Otajonova Farog'at G'afurjonovna**

UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi

+998941187722 [farogatotajonova69@gmail.com](mailto:farogatotajonova69@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Hofiz Xorazmiy lirikasidagi ma'nodosh so'zlarning yuzaga kelish omillari bo'yicha tahliliy mulohazalar beriladi. Ijodkor ijodidagi dialektizmlardan misollarning fonetik xususiyatlari o'rganilgan.

**Abstract:** The article gives analytical comments on the factors of occurrence of meaningful words in Hafiz Khorezmi's lyrics. The phonetic characteristics of examples of dialectisms in the artist's work were studied.

**Аннотация:** В статье даются аналитические комментарии к факторам появления смысловых слов в лирике Хафиза Хорезми. Изучены фонетические характеристики примеров диалектизмов в творчестве художника.

**Kalit so'zlar:** H. Xorazmiy devoni, matn lingvopoetikasi, ma'nodosh so'zlar, dialect, lug'aviy birlik, so'z boyligi

**Key words:** H. Khorazmi's book, linguopoetics of the text, synonyms, dialect, vocabulary

**Ключевые слова:** Книга Х. Хорезми, лингвопоэтика текста, синонимы, диалект, лексика

Hofiz Xorazmiy lirikasidagi ma'nodosh so'zlarning yuzaga kelish omillariga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Takrorlarning oldini olish ehtiyoji.
2. Ma'noni kuchaytirishga bo'lgan intilish.
3. Xos so'z boyligidan foydalanishga bo'lgan harakat.

Har bir ijodkor shu tildan foydalanar ean, albatta, unda ushbu til imkoniyatlaridan tashqari o'ziniki bo'lgan boshqa narsaga egalik qilish yoki undan foydalanish imtiyozi yo'q. Lekin unda *xos so'z boyligi* tushunchasiga asos bo'lgan ikki narsa bor:

1. Dialektal so'zlardan foydalanish.
2. Okkazonal birliklar ijod qilish.

Mumtoz matnda dialektal birliklar masalasi o'ta murakkab. Sababi biz o'sha davr sheva va lahjalari haqida umumiy tasavvurgagina egamiz, xolos. Shuning uchun masalani



Hofiz Xorazmiy she'riyatli tilining hozirgi Xorazm shevalariga nisbati tarzida qo'yish to'g'ri bo'ladi.

Ana shu tomondan qaraganda Hofiz Xorazmiy she'riyati tilida hozirgi Xorazm shevalari materiallariga nisbatan olganda dialektal deb qarash mumkin bo'lgan so'zlarning bir qismini fonetik farqlar bilan ajrilib turuvchi birliklar tashkil qiladi.

Masalan, *to'liq* ma'nosidagi *to'lu*:

Sharobi ishq birla *to'ludur* paymonavu sog'ar,

O'shandin xoli ermas sog'aru paymonani izda. (19-g'.)

Shoir bu so'zni *to'lun* (asosan oyga nisbatan) sifati bilan ma'nodosh tarzida qo'llaydi:

To'lun oytak yuzi aksindin tamom,

Oshiqi ko'nglinda bor nuru safo. (60-g'.)

Yana bir baytda shu sifatning orttirma daraja shakli hozirgi Xorazm qipchoq lahjasidagi shakliga muvofiq ishlatilgani ko'ramiz:

Ikki ko'zumni qilibman du koni la'lu guhar,

Xayoli raxtini ko'r *to'p-to'lu* do'kon ichra. (28-g'.)

Shoir lirikasi tilida hozirgi o'zbek adabiy tilida yoki hozirgi shevalarda jarangli undosh bilan boshlangan so'zlar jarangsiz varianti bilan boshlanadi.

*Dudoq – tutoq* (lab)

Surmas *tudoqi* la'lina aning baho ne teb,

To'ksun qonimni xun to'kar ul bir bahonag'a. (45-g'.)

*To'n – do'n-* (biror tusga kirmoq, aylanmoq)

Ol qon edi hajrinda ravon ko'z yoshi doyim,

Ol qonni ko'rung emdi *to'nubdur* qaro qong'a. (46-g'.)

Garchi gap bu o'rinda muallifning xos leksik boyligini namoyish qilishi borasida ketayotgan bo'lishiga qaramay, ushbu baytda namoyon bo'lib turgan shoir lingvopoetik mahorati haqida ozroq to'xtalish joiz. Sababi baytni bir necha shaklda o'qish va shunga muvofiq talqin qilish mumkin.

1) Agar baytni yuqorida berilgan shaklda o'qisak, undan tubandagi ma'noni uqish mumkin bo'ladi: "Hajrida ravon bo'lgan (oqqan) ko'z yoshlarim qizil qon edi, endi qora qonga do'ngan (aylangan) qizil qonni ko'ring".

2) Baytning nazarda tutilgan boshqa ma'nolari idrok etish uchun uning asliy shaklini ko'rib chiqamiz:

آل قان ایدی هجریندا روان کوز یاشی دایم

آل قان نی کورونک ایمدی تونوبدور قرا قانغا



Bunga ehtiyoj tug'ilgani sababi asliyatga ko'ra baytni  
Olqan edi hajrinda ravon ko'z yoshi doyim,  
Olqanni ko'rung emdi *to'nubdur* qaro qong'a –  
tarzida o'qish mumkin bo'ladiki, undan "Hajrida yig'layverganimdan ko'z yoshi jon  
(ravon)ni olgan edi, uning olgan narsani ko'ringki, qora qonga aylanibdi".

Demakki, baytda juda murakkab sintaktik shakldoshlik hamda *ravon* so'zini ikki  
ma'noda (tez; jon, ruh) ishlatish asosida ikki karra iyhom yuzaga kelmoqda.

*Suju – suchuk, chuchuk:*

Ko'z ko'ra ko'rdi davlati bedor bu kecha.

Bir so'rsam edi tor og'zinkim, *suchi* erur. (26-g'.)

*Tang – teng:*

Hadisi oshiq ila aql so'zi *tang* ermas,

*Tang* o'lmadi chu haqiqat so'zi majoz bila. (21-g'.)

Shu bilan birga shoir she'oriyatida turkiy *teng* bilan ma'nodosh *barobar* ham  
ishlatilgan:

Zaxmat-i daq bila sarg'ardiyu bo'ldi chu hilol,

Moh-i tobon chu yuzi birla barobar tushdi. (856-g'.)

Bugungi kunda Xorazmdagi o'g'uz lahjasi shevlarida *yashirmoq* ma'nosidagi *gizla-*  
*Hofiz* she'rlarida *kizla-* tarzida ishlatiladi.

Nechakim sir-i ishqini ko'ngulning ichra *kizlarman*,

Hadisi so'znokimdin bo'lur xurshidtak paydo. (10-g'.)

Hofiz Horazmiy she'riyatida *kizla-* ning bir necha ma'nodoshi bor:

*Yoshur – yashir:*

Muxlisi dirinadin *yoshurmag'il* yuzungnikim ,

Bu faqire xasta dilda bor husn e'tiqod. (129-g'.)

*Pinhon ayla-:*

Ishqing sirrini *pinhon ayladim* man xalq aro,

G'amzayi g'ammoz birla nogohon san chiqmag'il. (559-g'.)

*Nihon ayla-*

Chiqib ul mohi mehrafuz o'zinkim nihon aylar.

O'shul dam ayni oshiqdin base chashma ayon aylar. (231-g'.)

Shoir o'z she'rlarida *yaqin* ma'nosida hozirgi kunda shevalarda kam bo'lsa ham  
ishlatiladigan *yoviq* so'zini qo'llaydi:

Ko'zlari *yoviq*lar bilan kirma bu yo'lg'a ravon,

Bo'lmoq agar izda rahbari biyno bila. (20-g'.)

Eski o'zbek tilida *yaqin* omonim so'z bo'lib, biri o'z qatlamga mansub bo'lsa, biri arab tilidan o'zlashgan:

*Yaqin, yoqin* – I. *Yaqin* (ziddi: uzoq)

*Yaqin* II. a. Aniq, jazm, muqarrar; Ahli *yaqin* – avliyolar<sup>1</sup>.

Jonimni *yaqin* tiyru kamonsiz berisarman,

Ermas bu so'zum asri *yiroq* emdi *yaqindur*. (187-g'.)

Ba'zan shoir *yaqin* so'zidagi har ikkala ma'noni ham nazarda tutgan holda iyhom yaratadi:

Ko'rmak gumon og'zi aning bordur *yaqin*

Bilmam gumon *yaqinu yaqinim* gumondur. (170-g'.)

Majoz ermas haqiqatdur bu ma'no olam ichra, kim,

*Yaqin* yuzungni ko'rganlar *yaqin* birla gumon ko'rmas. (468-g'.)

Shuningdek, *yaqin* ma'nosini arab tilidan o'zlashgan *qarib* so'zi ham mavjud bo'lib, shoir ularni asosan o'ziga teng antonimi – arabcha *ba'id* (uzoq) bilan juft holatda qo'llaydi:

Agarchi suvrat ila do'st bas *ba'id* erur,

Va lekin ma'noda oshiq ani *qarib* bilur. (351-g'.)

Hofizi bechoradin suratda jonondur *ba'id*,

Lek ma'no birla jonimg'a erur asri *qarib*. (76-g'.)

Quyida esa qo'l so'ziga ma'nodosh sifatida *al* so'zi ishlatilganini ko'ramiz.

Sari zulfiki chiqib turar *alimdin* dushvor,

Asr shu bo'lg'ay erdi ilgima oson kelsa. (43-g'.)

Bu so'z Alisher Navoiy asarlarida *el* shaklida ishlatilgan. O.Madrahimov o'z lug'atida qo'l ma'nosining *al* shaklida ishlatilishiga oid muhim ma'lumotlarni jamlab beradi<sup>2</sup>. Hofiz she'riyati tilida ham *qo'l* somatizmi *alga* nisbatan keng qo'llanilgan:

Aqdi zulfini qo'lumkim tutdi

Hajrtak ko'zga ko'rundi ul shast. (97-g'.)

Shoir o'rni bilan qo'l ma'nosini beruvchi forscha *dast* va arabcha *yad* va *soid* (uning tirsak ma'nosi ham bor) so'zlarini ishlatadi:

Zulfni *alimga* olg'ani ko'nglum tilar, vale

Doim o'shul murod berur *dasti* shonaga. (45-g'.)

Bu baytda ham *al*, ham *dast* so'zlari ishlatilishidan *tarodif* san'ati yuzaga kelgan.

Ko'rguzsa o'shul *soidi* sumanni yengindin,

<sup>1</sup> Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. – Б. 717.

<sup>2</sup> Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999. –Б. 46.



Ko'rungay edi borchaga ul dam *ayadi* bayzo. (65-g'.)

Hofizning Xorazm shevalariga munosabati faqat lug'aviy birliklardan iborat emas. Shoir she'riyatida shunday ifodalar borki, ular ayrim baytlarni Xorazm shevalarining o'zi yozilganiday taassurot beradi. Masalan,

Tarki guftor qil oni tilasang, ey hofiz,

*Bilmaga bo'lmas* oni chun rivoyat birla. (36-g'.)

baytida *bilmaga bo'lmas* (bilib bo'lmaydi) birikmasi Xorazm shevalaridagi *aytmaka bo'midi* birikmasi qolipidadir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Narezimli Hafiz'in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998– S. 68.
2. Иброҳимов С., Шамсиев П. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – Б 22
3. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 393.
4. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 84.
5. Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2018. – Б. 67.
6. Мадрахимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999. –Б. 46.

